

УДК: 372.881.161.1

**OLIY HARBIY TA'LIM MUASSASALARI KURSANTLARINI MA'NAVIY-
AXLOQIY TARBIYALASH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH****Qodirova Feruza Mamurovna,***O'zbekiston Respublikasi Jamoat Xavfsizligi Universiteti**Tillarni o'rganish kafedrasi katta o'qituvchisi*ataeva.r.r@gmail.com**DOI:** <https://doi.org/10.5281/zenodo.18765601>

Annotatsiya. Mazkur maqola, oliy harbiy ta'lim muassasalarida ta'lim olayotgan kursantlarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash va metodikasini takomillashtirish hamda yoshlarni har tomonlama barkamol, yuksak ma'naviyatli inson sifatida rivojlantirish yuksak ma'naviyatli inson qilib tarbiyalash haqida bo'ladi.

Kalit so'zlar: harbiy-texnik mutahassislar, jismonan sog'lom, tarbiya, ma'naviy-axloqiy jihatlar, pedagogik jarayon, insonparvarlik g'oyalari.

Аннотация. В данной статье рассматриваются вопросы духовно-нравственного воспитания курсантов, совершенствования его методики, а также воспитания молодежи как всесторонне развитых личностей с высоким уровнем духовности и воспитания их как высоконравственных людей.

Ключевые слова: военно-технические специалисты, физически здоровые, воспитание, духовно-нравственные аспекты, педагогический процесс, идеи гуманизма.

Abstract. This article discusses the issues of spiritual and moral education of cadets studying at higher military educational institutions, the improvement of its methodology, as well as the development of young people as comprehensively developed individuals with high spirituality and the formation of morally mature personalities.

Keywords: military-technical specialists, physically healthy, upbringing, spiritual and moral aspects, pedagogical process, humanistic ideas.

Kirish. Keyingi yillarda mamlakatimizda chaqiriluvchilarni harbiy-texnik mutahassisliklar bo'yicha tayyorlash, ma'nan yetuk va jismonan sog'lom shaxsni kamol toptirish sohasida muayyan ishlar amalga oshirildi, sport, shu jumladan, uning texnik va amaliy turlari bilan shug'ullanish uchun qulay shart-sharoitlar yaratildi.

Kursantlarni kamol topishi juda murakkab va u uzluksiz uzoq jarayon davom etish orqali shakllanadi. Uning tarbiyasiga ota-onasi, oliy harbiy ta'lim, mahalla, do'stlari, jamoat tashkilotlari, atrof-muhit, ommaviy axborot vositalari, san'at, adabiyot, tabiat va hokazolar bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shunday ekan, tarbiya barcha jamiyat uchun, kelajak avlodning shakllanishi uchun, har kuni, har vaqt tarbiya zaruriy extiyoj hisoblanadi.

Oliy harbiy ta'lim muassasalarida ta'lim va tarbiyani uyg'unlikda amalga oshirish, yoshlarni zamonaviy bilimlar bilan qurollantirish, ularning tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash, madaniy saviyasini zamon talabi darajasiga ko'tarish, yoshlar iste'dodini yuzaga chiqarishni taqozo etadi. Chunki, hozirgi davrda jamiyat yangilanmoqda. Ana shu o'zgarishlar, yangilanishlar jamiyatda yashovchi har bir yoshning yangi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarda barcha imkoniyatlarini rivojlantirishni hisobga olgan holda, shu jamiyatda

yashovchi shaxsni tarbiyalash yo'llarini izlab topishga yo'llaydi. Bugungi kunda ta'limning maqsadi ana shu o'zgarishlar, yangilanishlar sharoitida mustaqil holda o'ziga to'g'ri yo'l topa oladigan erkin, ijodkor shaxsni – barkamol yoshlarni tarbiyalashdan iboratdir.[5]

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Tarbiya - aniq maqsad va tarixiy tajriba asosida yosh avlod ongini har tomonlama o'stirish va ularning dunyoqarashini kamol toptirish jarayonidir. Tarbiya jarayoni o'qituvchi va talabalar o'rtasida tashkil etiluvchi hamda aniq maqsadga yo'naltirilgan hamkorlik jarayonidir. Tarbiya jarayonida kursantlarning ongi shakllana boradi, his-tuyg'ulari rivojlanadi, ijtimoiy hayot uchun zarur bo'lgan ijtimoiy aloqalarni tashkil etishga xizmat qiladigan xulqiy odatlar hosil bo'ladi.[3]

Tarbiya haqida tushuncha berar ekanmiz, eng avvallo tarbiya nazariyasi pedagogika fanining tarkibiy qismi bo'lib, tarbiyaviy jarayon mazmuni, shakl, metod, vosita va usullari hamda uni tashkil etish muammolarini o'rganishimiz lozim. Yosh avlodni tarbiyalashda nimalarga e'tibor qaratmoq lozim? Bunday masalalarni hal etishda, avvalo mamlakatimizda, siyosiy-ijtimoiy sohalarda yuz berayotgan islohotlar mohiyatini chuqur va atroflicha mushohada qilib olishga to'g'ri keladi. Chunki davr ham, inson tarbiyasi ham o'zgarib bormoqda. Ayniqsa, XXI asr insoniyat tarixida kompyuter davri bo'lib kirib keldi. Biroq, fan-texnika qanchalik jadal rivojlanib, jamiyat hayotida muhim joy olib, ishlab chiqarish jarayonlarini tezlashuviga qanchalik samarali ta'sir etmasin, tarbiya nazariyasida shaxsni komil inson etib tarbiyalash, bu borada Markaziy Osiyo mutafakkirlari, xalq pedagogikasi hamda jahon pedagogikasining fikrlariga tayanib ish ko'rish zarur bo'ladi. Yoshlarni barkamol inson qilib tarbiyalashda, birinchi navbatda Sharq mutafakkirlarining qimmatli ma'naviy meroslari muhim dasturil amal ahamiyatiga ega bo'ladi. Muhammad al-Xorazmiy, Abu Nasr Farobiy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Ahmad al-Faroniy, Imom Ismoil al-Buxoriy, Ahmad Yassaviy, Bahovuddin Naqshband, Amir Temur, Muhammad Taraay Ulubek, Alisher Navoiy va Zahiriddin Muhammad Bobur singari olamga mashhur allomalarining ijtimoiy, siyosiy va falsafiy qarashlari barcha zamonlar uchun muhim ahamiyat kasb etadi.[5]

O'z o'tmish madaniy merosini chuqur o'rganmagan va e'zozlamagan, ajdod-avlodlari bosib o'tgan tarixiy yo'lni idrok etmagan, milliy mustaqillik yo'lida jon fido qilgan buyuk ajdodlar faoliyatidan xabardor bo'lmagan inson o'zligini hech qachon anglab yetolmaydi. O'tmish madaniy merosini o'rganish murakkab jarayon sanaladi. Madaniy meros namunalari va ularda ilgari surilgan ezgu niyatlarni yosh avlod ongiga singdirish uzluksiz, izchil, tizimli hamda maqsadga muvofiq amalga oshirilishi zarur.

Natijalar. Mamlakatimizda barkamol avlodni shakllantirish, talaba yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismonan sog'lom etib tarbiyalash, ularni olib borilayotgan islohotlarning faol ishtirokchisiga aylantirishga qaratilgan chora-tadbirlar izchil amalga oshirilmoqda.

Jumladan, zamonaviy oliy ta'lim muassasalari hamda nufuzli xorijiy universitetlarning filiallari tashkil etilmoqda. Talabalarning bandligini ta'minlash va ularni kitob o'qishga keng jalb qilish bo'yicha ishlarni mutlaqo yangi tizim asosida tashkil etish va amalga oshirish maqsadida "Yoshlar — kelajagimiz" Davlat dasturi qabul qilindi. Talabalar bilan doimiy muloqot qilish mazkur sohadagi dolzarb muammolarni aniqlash va hal etishda davlat organlari va jamoat tashkilotlari faoliyatining ajralmas qismiga aylanib bormoqda. [1]

Ta'lim muassasalarida o'rnatilgan intizom ta'lim muassasalari jamoasini jipslashtirish, ta'lim muassasasi ichki hayoti va faoliyatining mo'tadil kechishini ta'minlaydi. Intizom o'quvchilardan hamjihatlik asosida faoliyat olib borish, o'quv yurti manfaati uchun birgalikda kurashish, rahbariyat hamda vakolatli o'quvchilar organlari, uning a'zolari talablarini to'o'ri talqin etish va ularning bajarilishini talab etadi.[6]

Ongli intizom kursantlarning o'qish va mehnat faoliyatiga ongli munosabatda bo'lish, o'quv yurti ichki tartib intizomiga bo'ysunish, jamoa tomonidan topshirilgan topshiriqni bajarishga vijdonan yondashgan holda xulq-atvor me'yorlariga qat'iy rioya etish zarurligini tushunib olishlari va ularga o'z ixtiyorlari bilan itoat etish ko'nikmalarining hosil bo'lishiga sharoit yaratadi.

Muhokama. Tarbiya jarayonida talabalarning hayoti va faoliyatini pedagogik jihatdan to'g'ri uyushtirish g'oyat muhimdir. Faoliyat jarayonida talaba tashqaridan kelayotgan tarbiyaviy ta'sirlarga nisbatan ma'lum munosabatda bo'ladi. Bu munosabat shaxsning ichki ehtiyoj va xohishlarini ifodalaydi. Psixolog va pedagoglarning tadqiqotlari shaxsga tashqi omillarning (xoh salbiy, xoh ijobiy) ta'siri bolaning ularga munosabatiga bog'liqligini ko'rsatadi. Talabalar faoliyatini uyushtirishgina emas, balki tarbiyalanuvchining bu faoliyatga nisbatan turli kechinmalarni qanday anglashi, baholashi, his qilishi, ulardan o'zi uchun nimalarni olayotganligini bilishi zarur. Zero, tarbiya ijtimoiy munosabatlarning murakkablashib borishi asosida kechadi.[2]

Tarbiya jarayonida talabaning ongigina emas, balki his-tuyg'ularini ham o'stirib borish, unda jamiyatning shaxsga qo'yadigan axloqiy talablariga muvofiq keladigan xulqiy malaka va odatlarini hosil qilish lozim. Bunga erishish uchun o'quvchining ongi, hissiyoti va irodasiga ta'sir etib boriladi. Agar bularning birortasi e'tibordan chetda qolsa, maqsadga erishish qiyinlashadi. Tarbiya jarayoniga o'qituvchi rahbarlik qiladi. U talabalar faoliyatini belgilaydi, ularning ijtimoiy jarayonda ishtirok etishlari uchun shart-sharoit yaratadi.[4]

Xulosa. Umuman olganda, ma'naviy-axloqiy qadriyatlar va tarbiyaning uyg'unligi pedagogik jarayonning markaziy muammosidir. Bu borada milliy-ma'naviy meros, axloq mezonlarini insonparvarlik g'oyalariga tayangan holda uning uzviyligi, izchilligi, ilmiyligi, dunyoviyligi tamoyillari asosida insonlarning talab va ehtiyojlarini hisobga olgan holda aql-zakovat bilan yaratilgan, ularning tasavvuri, tafakkuri, orzu istaklari,

e'tiqodi, axloq qoidalarini o'zida mujassam etgan, amaliy haëtda sayqal topgan bo'lib, tarbiyaning asosiy negizi sanaladi.

Ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni kursantlar tarbiyasida uyg'unlashtirishning o'ziga xos jihatlari mavjud bo'lib, bular har bir yosh jamiyatda yashar ekan, o'z-o'zini anglashi va jamiyatda axloq me'yorlariga rioya etishi, jamoatchilik o'rtasida o'zini tuta bilishi, oilada hurmat va oqilona munosabatlarni tarkib toptirishi, farzandlik burchini bajarishi, halollik, iymonlilik mezonlariga amal qilishi, Vatanni sevish, buni o'z faoliyatida namoyon etishi kabilardan iboratdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. "Yoshlar - kelajagimiz" davlat dasturi.
2. GAIPNAZAROV RAXMATULLA RAXIMBAYEVICH MA'NAVYIY-AXLOQIY QADRIYATLAR VA YOSHLAR TARBIYASIDA UYG'UNLIK ("Kamolot" yoshlar ijtimoiy harakati misolida). T., 2011.
3. Gaibnazarov R. Ta'lim-tarbiya ishlarining mushtarakligi –ma'naviy-axloqiy qadriyatlar asosi. // Ta'lim muammolari. – Toshkent, 2009.
4. Gaipnazarov R. Ma'naviy-axloqiy qadriyatlar va èshlar tarbiyasi. // Uzluksiz ta'lim. – Toshkent, 2009.
5. XUDOYQULOV XOL JUMAYEVICH, XOLOV OLIMJON CHORSHAMIYEVICH, TARBIYAVIY ISHLAR METODIKASI (O'QUV QO'LLANMA). Termiz- 2020
6. <https://yuz.uz/uz/news/talim-tarbiya-tizimi-taraqqiyotning-yangi-bosqichi-muhokama-qilindi>

Ajiniyaz atindagi
NOKIS MAMLEKETLIK
PEDAGOGIKALIQ INSTITUTI
N M P I
1934